

## **SUD NUTQI VA UNING NING TARKIBIGA DOIR**

**Ismoilov Xurmatillo To‘lqinjon o‘g‘li**

Andijon davlat universiteti doktoranti (DSc),  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbek sud nutqi bo‘yicha amalga oshirilgan mavjud tadqiqotlar kuzatilsa, huquqshunoslarning izlanishlari talaygina ekani ko‘rinadi. Ayni ishlarda<sup>1</sup> sud nutqini notiqlik san‘atining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Huquqshunoslarning qimmatli tadqiqotlarini e‘tirof etgan holda, ta‘kidlashi zarurki, sud nutqining faqatgina huquqshunoslar nazari bilan notiqlik san‘ati tarkibida baholanishi uning qator lingvistik jihatlari e‘tibordan chetda qolishiga sabab bo‘ladi. Bugun tilshunoslik ilmida nutqning birlamchi tadqiqot obyektiga aylangani va shaxs-nutq kesishmasida lisoniy va nolisoniy omillar qurshovidagi qator qimmatli xulosalarning jamlanayotganligi fikrimizni dalillaydi.

O‘zbek tilshunosligida sud nutqiga doir qarashlar tilshunoslar Sh.Ko‘chimov, A.Aripova, Q.Mo‘ydinovlarning tadqiqot ishlarida ko‘rinadi. Sud notiqlogiga doir ma‘lumotlarni Sh.Ko‘chimovning doktorlik dissertatsiyasida<sup>2</sup> kuzatish mumkin. Unda qonunchilikning istiqbollari haqida so‘z yuritilib, qonun ijodkorlik faoliyati asosan yuristlar zimasiga tushishi, shu nuqtai nazardan rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta‘lim tizimida bo‘lajak huquqshunos kadrlarning til tayyorgarligiga alohida e‘tibor qaratilishi haqida aytiladi. Shu asnoda g‘arb mamlakatlari, xususan, Yevropaning Nornburg va Strasburg gimnaziyalari; AQShning Chikago, Illinoys hamda Angliyaning bir qator universitetlarida asosiy e‘tibor huquqshunoslarning til tayyorgarligiga qaratilishi, xususan, notiqlik san‘ati, sudda nutq so‘zlash, yozma nutq, ommaviy muomala nutqi, siyosiy nutq, sud notiqlogi, sotsial nutqiy aloqa, sudda nutq so‘zlash va haqiqat muammolari, bayonnomalar (protokollar) tahlili kabi og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan fanlardan tahsil olishi haqida qimmatli ma‘lumotlarni bayon qiladi.

Bundan tashqari, A.Aripovanning «Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari» nomli nomzodlik ishida<sup>3</sup> sud notiqlogining tarkibiy qismlari haqida fikr yuritiladi. Olimaning «Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari» nomli risolasi ham sud

---

<sup>1</sup>Qarang: Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиқлик маҳорати. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 102 б.; Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Т.: Адолат, 1994. – 32 б.; Назаров К., Усмонов С., Тохиров Қ. Юристинг нутқ маданияти. – Т., 2003. – 215 б.; Воинова М. Культура речи юриста. – Т., 2003. – 209 с.; Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристинг нутқ маданияти. – Т., 2004. – 158 б.; Мирхамидов М., Насанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Т.: Университет, 2004. – 238 б.; Мирхамидов М., Норпўлатов Н., Хасанов С. Юристинг нутқ маданияти. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2005. – 314 б.; Усмонов С. Юристинг нутқ маданияти. – Т.: ТДЮИ, 2006. – 197 б.; Бекмирзаев Н. Нотиқлик асослари. – Т.: Фан, 2006. – 143 б.

<sup>2</sup>Qarang: Кўчимов Ш.Н. Юқоридаги манба. – 280 б.

<sup>3</sup>Qarang: Арипова А. Нотиқлик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 2002. – 25 б.

notiqligining muhim jihatlarini tavsiflangani va ularga munosabat bildirilganligi bilan ham qimmatli sanaladi. Q.Mo‘ydinovning «O‘zbek tilining sud nutqi leksikasi» nomli dissertatsiyasida<sup>1</sup> sud nutqining notiqlikning tarkibiy qismi sifatidagi tarixiy tavsifiga doir ma‘lumotlar bayon etiladi. Tadqiqotchi o‘z oldiga o‘zbek tili sud nutqi leksikasining tarkibini aniqlashni va undagi birliklarni sistem leksikologiyaning tahlil usullari orqali o‘rganishni maqsad qiladi va bunga haqli ravishda erishadi.

Sud nutqiga notiqlik nazari bilan baho berilishiga sabab sifatida tarixdan sud nutqi notiqlik san‘atining qadimiy turi ko‘rinishida shakllanganligi, sudlar tarixidagi sud notiqligi bo‘yicha mavjud o‘lchovlar va sudda faoliyat yuritgan ayni davr notiq shaxslarining talaygina bo‘lgani, sud faoliyatida notiqlikning birlamchi o‘ringa chiqib qolgani, uning aksariyati, asosan, advokatlar faoliyatida ko‘zga ko‘ringani bilan izohlash mumkin. Sud nutqining notiqlik ko‘rinishida namoyon bo‘lishi, albatta, ma‘lum davr sotsial muhiti va mamlakatlar boshqaruvi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ma‘lumki, sud nutqi notiqlik san‘atining qadimiy turi sifatida eramizdan oldingi VII-VI asrlarda qadimgi Afina, Yunoniston davlatlarida katta e‘tibor va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan va notiqlik ko‘rinishlaridan biriga aylangan. «Davlatning demokratik qoidalariga ko‘ra har bir erkin fuqaro xohlagan paytida, xohlagan ishi yuzasidan sudga murojaat etishi, haq-huquqini va shaxsiy manfaatini himoya qilishi mumkin bo‘lgan. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo‘lishi ko‘pincha sudlanuvchi yoki da‘vogarning notiqlik mahoratiga bog‘liq bo‘lib, qaysi tomon o‘zining mantiqiy va daliliy talqini bilan sud hay‘atini ishontira olsa, hukm uning foydasiga chiqarilgan.

Ayni shu davrda sinegorlar (sud jarayonida boshqa birovlarining manfaatini ko‘zlab, nutq so‘zlovchi toifadagi notiqalar bo‘lib, ular notiqlik va huquqshunoslik fanlaridan maxsus ta‘lim olgan kishilar bo‘lgan), logograflar (ular sinegorlardan ajralib chiqqan muayyan ixtisosli kishilar bo‘lib, sinegorlar ham yozib, ham himoya qilgan bo‘lsalar, logograflar ko‘proq yozib berish bilan shug‘ullanganlar, biroq bu ularning nutq so‘zlashlarini istisno qilmagan) hamda o‘sha davrda Yunonistondan yetishib chiqqan Antifont, Lisiy, Isey, Perikl, Demosfen, Giperid, Kleon, Aristotel kabilarning xizmatlari tufayli sud nutqi notiqlikning yetarlicha shakllangan ko‘rinishlaridan biriga aylangan»<sup>2</sup>.

Tarixning guvohlik berishicha, qadimgi Yunonistonda Antifon, Lisiy, Demosfen; Rimda Mark Portius Katon, Mark Tulliy Sitseron; Rossiyada F.N.Plevako, A.F.Koni va boshqalar<sup>3</sup>ning faoliyati va qo‘llagan metodlarining samarasi o‘laroq, sud majlisida jonli nutq (muloqot)da asosiy jihatlar sifatida: bugungi nutqiy kompetentlik, nutqiy

<sup>1</sup> Qarang: Mўйдинов Q. Ўзбек тилининг суд нутқи лексикаси: Филол фан. б.ф.док. ...дисс. – Т., 2019. – 140 б.

<sup>2</sup> Qarang: Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б. 67; Мирхамидов М., Норпўлатов Н., Насанов С. Юристинг нутқ маданияти. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2005. – Б. 19; Мирхамидов М., Насанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Т.: Университет, 2004. – Б. 102; Усмонов С. Юристинг нутқ маданияти. – Т., 2006. – Б. 77.; Мўйдинов Q. Ўзбек тилининг суд нутқи лексикаси: Филол фан. б.ф.док. ...дисс. – Т., 2019. – Б. 38.

<sup>3</sup> Qarang: Mўйдинов K. Юкоридаги манба. – 140 б.

“hazm”<sup>1</sup>ga erishish, psixolingvistik ta’sir etishning asosiy o‘rinda turishi anglashiladi va ayni shu jihatlar sud majlisida nutqning san’at darajasida deb e’tirof etilishiga asos bo‘la oladi.

Sud majlisida adabiy til me’yorida, rasmiy uslub doirasida so‘zlash talab etiladi, biroq barcha ishtirokchilarda muloqot ko‘nikmasi birdek shakllanmaganligi va ularning bir xil saviyada bo‘lmasligi, bir xil sotsial qatlama mansub emasligini hisobga olib, muloqotga kirishishda shevaga xos so‘zlardan foydalanish, nutqiy strategiyani qo‘llash, adresat (sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh va shu kabilar)ga psixolingvistik ta’sir ko‘rsatish maqsadida adresant (raislik qiluvchi-sudya, davlat ayblovchisi-prokuror, himoyachi-advokat) nutqida zaruratga aylanadi. Bu esa sud majlisida nutqning xoslanishiga ishora qiladi. Sudda nutqiy xoslanishning sotsial omillari va me’yorlari borki<sup>2</sup>, ular o‘z o‘rnida sud nutqini psixolingvistik va sotsiolingvistik aspektlariga ishora qiladi.

Malumki, sud organining faoliyati faqatgina qonun hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalar asosida tashkil etiladi. Bu esa uning «davlat hokimiyati sifatida mustaqil holda ish yuritishi»<sup>3</sup>ni ta’minlaydi hamda faoliyatiga rasmiy tus beradi. Shuning uchun ham sud protsessiga oid har qanday qarashlar qonunlar asosida, ularda keltirilgan moddalarga tayanilgandagina to‘g‘ri, aniq va asosli bo‘ladi. Sud majlisi ishtirokchilari nutqi hamda ish hujjatlarini lingvistik tahlilga tortishda ham har bir holat qonun bilan izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Sud majlisi ishtirokchilarining nutqini shaxs-nutq kesishmasida tahlilga tortish g‘oyat muhimdir. Bu esa sud majlisida bevosita ishtirok etish orqali muloqotga kirishuvchilar nutqi va unga yondosh hodisalar (paralingvistik vositalar, emotsional holatlar)ni kuzatishni talab etadi. Sud protsessi deganda, biz, jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan biror jinoyat ishining jinoyat ishi yuritishdan boshlab, sudning hukmi yoki ajrimi chiqarilib, ayblanuvchi mahkum yoki oqlangan shaxsga aylangunigacha bo‘lgan jarayonni tushunamiz. Sud majlisi (muhokamasi) esa, ushbu jarayonning tarkibiy qismi bo‘lsada, alohida jarayondir. Ya’ni unda taraflar bir joyga jamlanib yuzma-yuz muzokaraga kirishadilar va buning amaliy natijasi (xulosasi) sifatida sud hukmi yoki ajrimi yuzaga chiqadi.

Sud majlisida har bir ishtirokchi ma’lum sotsial rolni bajaradi. Bugungi qonun matnlariga tayangan holda sud majlisi (muhokamasi)dagi sotsial rolni hisobga olib, raislik qiluvchi – sudya, himoyachi – advokat, davlat ayblovchisi – prokuror terminlarini sinonim sifatida ishlatish to‘g‘ri, deb hisoblaymiz.

1-jadval

<sup>1</sup>Нуткий хазм атамаси остида мулоқот жараёнида иштирокчилар бир-бирларининг нуткий ифодаларини (вербал ва невербал нутқларини) тўғри, аниқ ва осон тушунишларини ифодалаймиз.

<sup>2</sup> Qarang: Исмоилов Х.Т Суд лингвистикасининг социолингвистик ва психолингвистик аспекtlари (жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): филол. фан. б. ф. д-ри ... дисс. – Андижон. 2021. – 142 б.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. 106-modda. – B. 60.

<b>Sud majlisidagi sotsial rollar</b>		
1.	Sudya	Raislik qiluvchi
2.	Prokuror	Davlat ayblovchisi
3.	Advokat	Himoyachi
4.	ayblanuvchi	Sudlanuvchi

Sud majlisi sud protsessining tarkibidagi alohida muhokama jarayoni (yig‘ilish, majlis, munozara maydoni) ekanini hisobga olsak, unda har bir ishtirokchidan ma’lum sotsial rolni bajarish talab etiladi. Shu ma’noda, sud majlisi (muhokamasi)ni aks ettiruvchi ish hujjatlari (sud majlisi bayonnomasi, hukm, ajrim)da ham bu rollar aynan ifodalanadi. Himoyachi, davlat ayblovchisi, raislik qiluvchi so‘zlari Jinoyat-protsessual kodeksi<sup>1</sup>da o‘z ma’no va sharhiga ega.

Mavjud ishlarda sud nutqini tadqiq etishni, dastavval, uning tarkibiy qismlarini aniqlashdan boshlash o‘rinli ekanligi, tarkibiy qismlarning mohiyati, mazmuni sud nutqining lisoniy jihatlarini, o‘ziga xosliklarini belgilashi<sup>2</sup> ta’kidlanadi. Sud nutqining tarkibi huquqshunoslar tomonidan turlicha tasnif etiladi. Xususan, S.Inomxo‘jayev qoralovchi (prokuror) nutqi, oqlovchi (advokat) nutqi, o‘z-o‘zini himoya qilish nutqi, jamoatchi-qoralovchi nutqi kabi to‘rt guruhni farqlaydi<sup>3</sup>. S.Karimov, X.Mamatov, I.Bo‘riyevlar esa prokuror nutqi, jamoatchi-qoralovchi nutqi, himoyachi nutqi, jamoatchi-oqlovchi nutqi, o‘z-o‘zini himoya qilish nutqi kabi besh guruhni ajratadilar<sup>4</sup>. M.Mirhamidov, S.Hasanovlar prokurorning ayblov nutqi, advokatning himoya nutqi, sudyaning muzokara nutqi<sup>5</sup> kabi uch guruhni, M.Mirxamidov, N.Norpo‘latov, S.Hasanovlar prokurorning ayblov nutqi, advokatning himoya nutqi, sudyaning qonun targ‘iboti, huquqiy madaniyatni yuksaltirish nutqi kabi uch guruh<sup>6</sup>ni, S.Usmonov prokurorning ayblov nutqi, advokatning himoya nutqi kabi ikki guruhni<sup>7</sup> farqlaydilar. A.Aripova o‘zining «Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari» nomli risolasida prokuror nutqi, advokat nutqi, javobgar shaxs nutqi kabi uch guruhni<sup>8</sup> farqlaydi. Q.Mo‘ydinov sud jarayonidagi nutqlarning amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda bir xil ko‘rinishda nomlanishiga zaruriyat tug‘ilishini ta’kidlaydi. Bizningcha ham, amaldagi qonun hujjatlariga monand tasniflangan nutqlar sud nutqi tarkibini har tomonlama asosli ifodalaydi. Chunki negizida davlat tili hamda huquqiy bilimlar jamlangan amaldagi qonunlar sud protsessini to‘la va aniq tavsiflaydi.

<sup>1</sup>Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Адолат, 2018. – 848 б.

<sup>2</sup> Мўйдинов Қ. Юқоридаги манба. – Б. 40.

<sup>3</sup> Иномхўжаев С. Юқоридаги манба. – Б. 18-22.

<sup>4</sup> Каримов С. ва бошқ. Юқоридаги манба. – Б. 145-148.

<sup>5</sup> Мирхамидов М. ва бошқ. Юристинг нутқ маданияти. – Б. 118-127.

<sup>6</sup> Мирхамидов М. ва бошқ. Юқоридаги манба. – Б. 191-209.

<sup>7</sup> Усмонов С. Юристинг нутқ маданияти. – Т.: ТДЮИ, 2006. – Б. 105-110.

<sup>8</sup> Арипова А. Юқоридаги манба. – Б.71-72.